

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi San'at bo'limi*

*mudiri: D.To'xtaboyeva*

Zaxiriddin Muxammad Bobur 1526 yilda Shimoliy Xindistonni bosib asosiy shaxarlar bo'lgan Dexli va Agra shaxarlarini egalladi. Shu davrdan e'tiboran Xindistonda yangi bir sulola – temuriylar saltanatining uzviy davomi xisoblangan boburiylar sulolasiga asos solindi. Boburiylar Hindistonning g'oyat katta qismida 180 yildan ko'prok muddat davomida juda kuchli ma'muriy boshqaruvni amalga oshirdilar. Bu ma'muriy tartib ulardan keyin xam uzoq yillargacha o'z kuchini saqlab turdi. Biroq bu davlatning idora usuli turkiy davlatlar usulidan ham farq qilardi. Boburiy hukmdorlar Hindistondagi davlat tizimiga juda katta ijobiy o'zgarishlar kiritdilar. Sulola asoschisi Bobur «podshox» unvonini olgach, uning vorislari ham bu udumni davom ettirdilar. Ya'ni boburiy hukmdorlar o'zidan boshqa hech kimni ulug'vor deb tan olmas edilar. Ular o'z zamonasining mutloq hukmdori hisoblangan. Akbarshox podshoxning obro-e'tiborini yanada mustaxkamladi. U xatto diniy masalalardagi baxs-munozaralarni yakka o'zi xal qilish huquqiga ham ega edi. Shunisi muximki, boburiylar davlati siyosati diniy asoslarga kurilgan emasdi. Avrangzeb – Olamgirdan boshqa barcha hukmdorlar davlat ishlarini islom qoidalari asosida ko'rmagan. Boburiy podshohlar o'z zimmlariga ikkita asosiy mas'uliyatni – davlat siyosatini qo'lda maxkam tutish va saltanatni kengaytirish mas'uliyatini olgandilar. Bundan tashqari ular qo'l ostidagi fuqarolarning turmush farovonligini yaxshilash choralarini tinmay qidirib topar va amalga oshirardilar. Boburiylar davlat siyosatining yana bir xususiyati shundan iborat ediki, ular davlatni boshqarishda dinlarga nisbatan beg'araz, xolis siyosat olib borar edilar. Bu tadbir xilma-xil dinlarga e'tiqod qiladigan Hindiston xalqi uchun juda katta axamiyatga ega bo'lgan. Bobur va Xumoyun jaxolatparast bo'lmagan. Sulolaning uchinchi vakili Akbar (1556-1605 yillar) esa barcha dinlarga barobar xurmat nazari bilan qaragan.

Jaxongir (1605-1627) bilan Shoxjaxon (1627-1658) xam Akbar siyosatiga xam Akbar siyosatiga sodiq qolganlar. Faqat Avrangzebgina (1658-1707) Akbar siyosatining aksini olib bordi. U davlat boshqaruvida islom dini qonun-qoidalariga qattiq amal qilgan.

Umuman aytganda Boburiylar sulolasining siyosati ulardan avvalgi Dexli sultonlari siyosatidan tamoman farq qilgan. Davlat siyosatida ijobiy o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'lgan.

Boburiylar saltanatida podsho davlat boshlig'i xisoblangan. Qonun chiqaruvchi xam, bosh ijrochi ham, xarbiy sarkarda ham, oxirgi xukmni chiqaruvchi xam podshohning o'zi edi. Shu bilan birga davlat boshqaruvida vazirlarning ro'li xam katta bo'lgan. Lekin oxirgi xukmni podshohning o'zi chiqargan. Xullas barcha xuquq va xokimiyat podshohning ko'li ostida birlashtirilgan. Biroq podshohlar o'zlarining eng asosiy burchi deb fuqarolar farovonligini nazarda tutar va johillik hamda o'zboshimchalikka yo'l qo'ymas edi.

Akbar «Shoxlarning ulug'vorligi ularning adolatligi va davlatni odilona boshqaruvidadir» degan qoidagi qattiq amal qilar edi. Xatto o'ta jaxolatparast dindor Avrangzeb xam fuqarolar ustidan odilona siyosat yuritishni o'zining muqaddas burchi deb hisoblangan. Boburiy xukmdorlarning barchasi kuniga kamida 7-8 soat davlat ishlari bilan band bo'lgan. Avrangzeb esa bir kecha-kunduzda bor-yo'g'i 3-4 soat dam olgan xolos, qolgan paytda tinimsiz davlat ishlari bilan shug'ullangan. Boburiylar saltanatida podshohlarning huquqlari cheksizdek ko'rinsa ham, aslida uning chegarasi ham bor edi. Podshohlar o'z vazirlari va obro'li bek-amirlarining fikr-muloxazalarini e'tibor bilan tinglab, ularning maslaxatlariga ham amal qilganlar.

Hindistonda boburiylar davridagi davlat apparatining faoliyat ko'rsatish tarzini podshohning va vazirlarning ishlash tarzini ko'rsatuvchi ma'lumotlardan bilish mumkin. Bu xaqdagi ma'lumotlar Akbar davridan e'tiboran ko'paygan.

Abul Fazl Alloliy «Oyini Akbariy» asarida Akbar davridagi davlat tashqiloti xususida batafsil ma'lumotlar bergan. Bu idoraviy usul Akbardan keyin ham nisbatan o'zgarishsiz sulolaning barcha vakillari davrida amal qilgan.

Abul Fazlning yozishicha, mamlakat fuqarolari to'rt toifaga bo'lingan:

1. Jangchilar. 2. Olimlar va yozuvchilar. 3. San'atkor va savdogarlar. 4. Dehqonlar. SHuningdek muallif saltanatni to'rtta tabaqa boshqarganini ham aytib o'tadi.

Birinchi tabaqa Numoni davlat bo'lib, bunga beklar va amirlar kirgan. Mazkur tabaqa ichida bir qancha mansablar bo'lgan. Masalan, podshox saroyi davlat ishlariga raxbarlik qilgan bu kishilar 13 ta vazirlikda ish olib borganlar, ya'ni 13 ta vazirlik joriy qilingan. Ularning xar biri aloxida jabxaga bosh-qosh bo'lib o'sha soxaning ishlarini nazorat qilib borganlar. Ularning xar biriga bir nechtdan yordamchi birlashtirilgan.

Ikkinchi tabaka Avliyoi nusrat-ya'ni zafar yordamchilari deb atalgan. Bu nom vazirga va moliyaviy ishlar bilan band bo'lgan kishilarga berilgan. Ya'ni ular vazirlar qo'l ostida moliyaviy ishlar bilan shug'ullangan ma'murlarga berilgan.

Asxobi Suxbat deb nomlangan uchinchi tabaqaga; podshohning doimiy suxbatida bo'lib turuvchi kishilar kirgan. Ular jumlasiga sadrlar-ya'ni shariat ishlari boshlig'i, adolat ishlari nodiri, qozilar, tabiblar va boshqalar kirgan.

Arbobi xizmat-deb atalgan to'rtinchi tabaqaga ega podshohga xizmat qiluvchilar kirgan.

Boburiylar saltanatida uzoq vaqt amalda bo'lgan mansab va idoralar quyidagilardir. 1. Vaqil-bosh vazir. 2. Vazir-ma'naviy ishlarning boshlig'i, agar bosh vazir yo'q bo'lsa uning o'rnini egallagan. 3. Xoni somon-saroy va unga bog'lik keng tashkilot raxbari. 4. Miri baxshi-askariy ishlarning xarbiy va ma'naviy boshlig'i. 5. Sadri Kul-diniy ishlar raxbari. 6. Kokiul kuzot –adolat ishlari noziri. 7. Muxtasib-diniy-axlokiy ishlar targibotchisi. 8. Soruga-axborot va xabarlashuv ishlari boshlig'i.

Boburiylar saltanati bir necha viloyatlarga bo'linib idora qilingan. Akbarshox davrida viloyatlar soni 15 ta bo'lgan bo'lsa, Avrangzeb davriga kelib ularning soni 20 taga etdi. Viloyat ma'muriyati boshlig'i «Nizom», «Sipoxsolar» yoki «SHu`baxor» deb atalgan. Xar bir viloyatning bosh shahari bo'lgan. Viloyat ma'muriy idoralari xam xuddi markaziy ma'muriy idoralar tizimiga mos ravishda ko'rilgan.

SHu`baxor –bu mansab viloyat hokimi degan huquqni berardi. Davlat tizimida uning lavozimi yuqori hisoblanib, o`sha viloyatlardan unga katta mulk ajratilgan. U viloyat xududida tenglikni ta`minlashi, qo`l ostidagi fuqorolar turmush sharoitini yaxshilashi, davlatga qarshi isyonlarni bostirish, jinoyatchilarni jazolash, turli obodonchilik va qurilish ishlarini olib borishi va viloyat xududidan soliq yig`ib olishga raxbarlik qilishi lozim bo`lgan. Viloyatdagi barcha amaldorlar uning taklifiga binoan tayinlangan va lavozimdan chetlashtirilgan.

Viloyatlarning moliyaviy ishlariga Devonbegi boshchilik qilgan. Bu lavozim egasi markaziy Devonbegi taklifiga binoan podshox tomonidan tayinlangan. Mansab bo`yicha u viloyatda SHu`badordan keyingi o`rinda turgan.

Viloyatlar boshqarishni qulaylashtirish uchun bir necha sarkarlarga ya`ni tumanlarga ajratilgan. Xar bir tuman esa bir necha parganalarga bo`lingan. Sarkar va pargana boshliqlari viloyat boshlig`i-SHu`badorga buysunsa ham, ularni lavozimiga podshohning o`zi tayinlangan.

Boburiylar saltanatida shaharlar ma`muriyatining barcha ishlarini Kutvol bajargan. Boburiylar saltanatining ham ichki, ham tashqi siyosat olib borilishida, davlatning kuch qudratini shu mustaxkamlashda lashkarning o`rni nixoyatda katta bo`lgan. Boburiylar lashkarining hammasi to`g`ridan-to`g`ri podshohning xizmatiga kirgan kishilardan iborat bo`lmay, bek-amirlar qo`l ostidagi janglardan iborat edi. Ya`ni xukumat bir amirga askar yo`nlab, qurollantirib o`zi unga maosh tayinlagan.

Boburiylar saltanatida mansabdor so`zi bek so`zining sinonimi tarzida qo`llanilgan. Ya`ni katta xarbiy sarkardalar mansabdor deb atalgan. Lashkar o`nliklar, yuzliklar, mingliklar shaklidagi qismlarga bo`lingan va ularga unboshi, yo`zboshi, mingboshilar qo`mondonlik qilgan. Akbarshox davrida lashkar mansabdorlari 66 ta darajaga bo`lingan. Eng quyi darajada Dexboshilar-ya`ni o`nboshilar, eng yuqori darajada esa Daxxazoriy-ya`ni o`n ming kishilik qo`shin qo`mondoni bo`lgan. Boburiylar davlatida 5 mingdan ortiq lashkarga faqat podsho xonadoni a`zolari va shaxzodalarigina qumondonlik qilganlar.

Boburiylar davlatining byudjeti asosan har-xil soliqlardan hosil bo'lgan. Davlatning eng katta foyda manbai yer va yer maxsulotlari solig'i edi. Bundan boshqa byudjet manbalariga kul zarb qilish ishlari, xadiyalar, tuz konlari, bojxona va manapoliyalar, juz`ya solig'i va boshqa bir qancha mahalliy soliqlar kirgan. Boburiylar davlatida yer ikki turga: Xolisa-ya`ni to`g`ridan-to`g`ri podshoga yoki xazinaga daromad keltiruvchi yerlar va xizmati evaziga turli kishilarga berilgan jogir erlarga bo`lingan. Jogir erlar ba`zan ikto xam deyilgan.

Davlatda pul muomalasi xam juda yaxshi yo`lga qo`yilgan. Jami 26 xil tanga pul zarb qilingan. Eng yuqori qimmatga ega bo`lgan va oltindan zarb qilingan pul birligi «shaxanshoxi» deb atalgan. Kumush pul birligi «rujiya», mis pullar esa «dom» deb atalgan.

Boburiy shoxlarning asosiy burchi adolatli ish olib borish edi. Podshoh asosiy qonun chiqaruvchi shaxs hisoblanib, sudlov xokimiyati ham uning qo`lida bo`lgan. Eng og`ir va quyi sudlov idoralarida xal qilib bo`lmaydigan ishlar qozilar orqali shox e`tiboriga xavola qilingan. Sud ishlari bo`yicha podshohdan keyingi mavqeda qozikalon turgan. Xar bir viloyat, tuman, pargana va shaxarlarda qozilar tayinlangan. Qozilar asosan mulklarni ajrim qilish va diniy ishlar muxokamasi bilan shug`ullanganlar. Akbardan boshqa barcha Boburiy shoxlar xuquqiy masalalarni xal qilganda islom dini qoidalariga tayanib ish ko`rganlar. Akbar esa hindlar masalasi ko`rilganda, ularning urf-odatlarini xam xisobga olgan.. Avrangzeb davrida islom qonunlariga asoslangan qonunlar to`plami – «Fatvoyi – olamgiri» yaratilgan.

Boburiylar saltanatiga savdo-sotiq, diplomatiya ishlari ham mukammal tarzda yo`lga qo`yilgan va bu ishlar rivojlantirib borilgan. Boburiylar davlati savdo-sotiq ishlarini ko`pincha Evropa davlatlari asosan qishloq xo`jalik maxsulotlari eksport qilingan. Boburiylar Usmoniylar davlati bilan va Movorounnaxr xonliklari bilan ham yaqin qo`shnichilik aloqalarini yo`lga qo`yganlar. Movorounnaxr bilan Hindiston o`rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar Akbarshox va Buxoro xoni Abdullaxon davrida qizgin tus olgan. Bu davrda ikki davlat o`rtasida elchilik va savdo-sotiq aloqalarini olib borilgan.

Boburiy xukmdorlar saltanatda ilm-fan, san`at va madaniyatning rivojiga ham xomiylik qilganlar. Bu soxalarga juda katta mabla'lar sarflangan. Saltanatda fan va madaniyat beqiyos darajada rivojlandi. Ayniqsa me`morchilik uz taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Boburiylar davrida yaratilgan me`morchilik bugungi kunda ham dunyo axlini o'ziga maftun qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Boburiylar saltanati temuriylar saltanatining uzviy davomi sifatida uch yuz yildan ortiq davr mobaynida mavjud bo'lib keldi va dunyo taraqqiyotiga muhim xissa qo'shdi.

#### **A D A B I Y O T L A R**

Azimjonova S. Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii. M., «Nauka», 1977 g.

1. Zaxiriddin Muxammad Bobur. «Boburnoma». T., YUlduzcha. 1989 yil.
2. Nizomiddinov I. XVII-XVIII asrlarda Urta Osiyo Xindiston munosabatlari.
3. SHamsutdinov R., Abdullaev F., Abdullaev M., Buyuk Boburiylar saltanati. Andijon, «Meros», 1995 y.
4. Xoshimov I. Xindistonda boburiylar sulolasi saltanati. T., «Ukituvchi», 1996 y.
5. Gulbadanbegim. «Xumoyunnoma», T., «Ma`naviyat», 1998 y.